

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI FILOLOGIYA
FAKULTETI O'ZBEK TILI
YO'NALISHI 1-BOSQICH 102-
GURUH TALABASI *HAKIMOVA*
***MUYASSARNING* "O'ZBEK**
MUMTOZ VA MILLIY
UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI"
FANIDAN TAYYORLAGAN

REFERAT

NAMANGAN - 2016

MUNDARIJA

Kirish.....2

I bob

Xo'janazar Huvaydo- otashnafas shoir.....4

1.1. Huvaydo ijodining o'rganilishi.....5

1.2. Shoir ijodiy me'rosi va mavzular olami.....7

II bob

“Rohati dil” dostonining g'oyaviy-badiiy tahlili.....8

2.1.”Rohati dil” dostonining tuzilishi va mundarijasi..11

2.2.Dostondagi hikoyalarning ma'rifiy-adabiy
qimmatini.....13

2.3.”Rohati dil” dostonining badiiyati.....15

III

Xulosa.....18

MAVZU: Huvaydo “Rohati dil” dostonidagi hikoyatlar va ularning ahamiyati

Reja:

Kirish

I bob

Xo’janazar Huvaydo- otashnafas shoir

1.2. Huvaydo ijodining o’rganilishi

1.2. Shoir ijodiy me’rosi va mavzular olami

II bob

“Rohati dil” dostonining g’oyaviy-badiiy tahlili

2.1.”Rohati dil” dostonining tuzilishi va mundarijasi

2.2.Dostondagi hikoyalarning ma’rifiy-adabiy qimmati

2.3.”Rohati dil” dostonining badiiyati

III Xulos

I bob:

Xo'janazar Huvaydo – otashnafas shoir.

Mulla Xo'janazar o'g'li Huvaydo XVIII asr (1704-1780) o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan va o'zining lirik she'rlari va dostonlari bilan mashhur bo'lgan shoirlardan biridir. U O'shda tug'ilib, Farg'onaning Chimyon degan go'zal maskanida o'sib-ulg'aydi. Bu haqda shoir shunday yozadi:

Kaminaning oti Xo'janazardur,
Atosining oti G'oyibnazardur.
Nasabda O'shu mavludi Chimyoniy,
G'aribu xokisoru dil parishoniy.

Haqiqatan, Huvaydoning otasi G'oyibnazar Ernazar o'g'li 1104-hijriy yilda bir guruh marg'ilonlik qarindoshlari bilan birga Chimyonga ko'chib kelib, chimyonlik bir qiz bilan oila qurgan. G'oyibnazar Chimyonda nufuzli maktabdor eshon edi¹. U Qashqarda shuhrat topgan Ofoq xo'ja muridlaridan bo'lib, piriga ixlos va hurmatining ramzi sifatida o'g'liga Xo'janazar ismini bergan. Huvaydo shoirning adabiy taxallusidir. Uning tavallud yili ma'lum emas. Shoirning zamondoshi, ixlosmandi Mavlono Noseh, shogirdi shoir Mirhasan Sadoiy hamda chevarasi Mullo Yo'ldosh Xilvatiyning marsiya-ta'rixida Huvaydo shaxsi va fazilatlari ta'rif etilib, vafoti sanasi milodiy 1780-yil deb ko'rsatiladi²:

...Xirad ustodi ta'rix vafotin,
Bitibdur: "G'oyib o'ldi qutbi hodiy"

¹ Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-T.:2006.

² Abdullayev V., Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 3-jild.-T.:1978.

Bu sana abjad hisobida 1195-hijriy, 1780-1781-milodiy yilga to'g'ri keladi. Otasi vafotidan so'ng maktab va xonaqalarda maktabdor domla sifatida yoshlarga saboq o'rgatadi. Huvaydo eshon sifatida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'ladi³. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari to'g'risida zamondoshi Noseh yozib qoldirgan quyidagi misralar bu fikrlarni tasdiqlaydi:

Tutib suhbat davom umri boricha,
Bayoron ta'lim erdi fikri yodi.
Dabistonda sa'y aylab tun-u kun,
Yozilgan necha tolibning savodi...

Huvaydodan so'ng uning avlodidan bir necha shoir va shoira yetishib chiqqanligi ma'lum. Ular haqida To'xtasin Jalolov o'zining "Samarbonu" risolasida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi. Chunonchi, Huvaydoning nabirasi Mavlaviy Sirojiiy (vafoti 1877), chevaralari Samarbonu (1837-1891), Salohiddin Soqib (1838-1910), Mullo Yo'ldosh Xilvatiy (1858-1921) sohibi devon shoirlar bo'lgan. Shulardan Samarbonu va Xilvatiyning she'riy devonlari nashr etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida Huvaydoning hayoti va ijodi hali keng o'rganilmagan. Shuning uchun ham uning hayoti haqida hozircha kam ma'lumotga egamiz⁴.

Sho'rolar mafkurasining salbiy ta'siri tufayli XX asrning turli yillarida yaratilgan ayrim ishlar tarkibida, alohida yozilgan ilmiy-ommabop maqolalarda Huvaydoning boy falsafiy ruhiy dunyosiga, shoirlik mahoratiga biryoqlama baho berish, asarlarining tub mohiyati xususida atroflicha fikr yuritmaslik mayllari sezilib turadi. XX asrning 60-yillaridan boshlab adabiyotshunoslikda uning merosini kengroq tadqiq etish davri boshlandi, deyish mumkin. Shu yillari adabiy merosimizning yirik bilimdonlari va tadqiqotchilari sanalmish akademiklar V. Zohidov, V. Abdullayev, talantli olimlar T. Jalolov, S. G'aniyevaning Huvaydo ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlari e'lon qilindi. "O'zbek adabiyoti tarixi" besh

³ Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. -T.:1976.

⁴ Jalolov T. Samarbonu.-T.:1969.

tomligining uchinchi tomida (1978) V. Abdullayev va R. Orzibekovning Huvaydoga bag'ishlangan adabiy portreti chop etildi⁵.

Keyingi yillarda uning "Rohati dil", "Ibrohim Adham" qissalari, "Devon"i va ular nashri bilan bog'liq fikrlar e'lon qilindi. Nusratulla Jumaxo'janing "Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros" mavzuidagi doktorlik tadqiqotida Huvaydo merosidagi so'fiyona dunyoqarash talqini va tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Shu mavzuga bag'ishlangan muallif maqolasi "Sharq yulduzi" jurnalida bosildi. N. Jumaxo'janing Huvaydoga bag'ishlangan ishlarida shoirning islom va tasavvuf ta'limotidagi she'rlari ma'rifat nurlari yolqinlanib turishi, umuminsoniy hayotbaxsh masalalar orifona talqin etilganligi ochib berilgan. Huvaydo ijodining nechog'li muhim ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini XX asrning 60-yillaridayoq akademik V. Zohidov shunday baholagan edi: "U na saroy bilan bog'liq bo'ldi, na mamlakatni idora etish ishlariga amaliy aralashdi... Lekin shunga qaramasdan, o'z qalami bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o'z munosabatini bildirishga va shunday qilib, o'z zamonining hozirjavob shoiri bo'lishga intildi... Uning ijodida insonning oliyjanob xislatlaridan va Vatan tabiati go'zalliklaridan tortib to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzlarning razil qilmishlariga qadar bo'lgan voqealar o'zining barcha ziddiyatlari bilan aks etgan".

Huvaydodan bizgacha bir devon meros qolgan. Shoir sulolasidan yetishib chiqqan Sirojiiy, Salohiddin Soqib, Samarbonu kabi iste'dodli shoirlar adabiyotimiz tarixida iz qoldirganlar. Salohiddin Soqib bobosi merosini mukammal devon holiga keltirgan. U qayta-qayta ko'chirilgan. Devonda 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 qit'a, 3 muxammas, 3 masnaviy va bittadan musaddas, musamman va mustazod kirgan⁶. "Rohati dil" nomli diniy-tasavvufiy mazmundagi doston ham devondan o'rin olgan. Huvaydo ijodi haqidagi ma'lumotlar bizgacha "Devoni Huvaydo" asarining qo'lyozmasi, "Bayozi Haziniy"da Huvaydo

⁵ Abdullayev V., Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 3-jild.-T.:1978.

⁶ Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. -T.:1976.

g'azallariga bog'langan taxmislar, "Tuhfat-ul Obidin va uns-ul oshiqin" bayozi orqali yetib kelgan⁷.

Huvaydo nafaqat Farg'onada, balki Buxoro va Xorazm adabiy muhitida ham mashhur bo'lib, Mujrim Obid (Buxoro), Ogahiy (Xorazm) kabi shoirlar uning ijodiga murojaat etib, asarlariga tatabbu va taxmis bitishgani ma'lum.

Devon mutolaasida Huvaydo g'azal, mustazod, ruboiy, chiston-g'azal kabi she'r turlari, masnaviy singari nazm namunalarining mumtoz ustasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'z dunyoqarashi, tafakkur tarzi, badiiy uslubi jihatdan Xo'janazar Huvaydo Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi ulug' adabiy siymolarga yaqin turadi. Ularni umuminsoniy g'oyalarni kuylashdagi hamohanglik hamda tasavvuf maslagiga e'tiqod yaqinlashtirgan. Huvaydo dunyoqarashida Yassaviy va Mashrabga izdoshlik yaqqol seziladi. Ilohiy ishqning bu uch otashin oshig'i Ollohga muhabbat bog'lash borasida birlashadilar. Yassaviy o'z hikmatlarida "Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema" tarzida nido cheksa, Mashrab "Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo", deya bong uradi. Huvaydo esa ularga quyidagicha yakdillik izhor etadi:

Dunyoda hoy-u havas qilmoq abas,

Bir Xudodin o'zgani suymoq abas.

Huvaydo dunyoqarashicha, taqvodorlik shon-shuhrati uchun namoyishkorona, xo'jako'rsinga ibodat qilish xudnamolik- o'zini ko'rsatish, ko'z-ko'z qilishdir. Huvaydo o'z dunyoqarashini takomillashtirish maqsadida tasavvufning eng yetakchi tariqatlari- yassaviya hamda naqshbandiyaning ilg'or insonparvar xususiyatlarini uyg'un ravishda mujassamlashtirishga harakat qilgan. Uning fikricha, insonni e'zozlash Ollohnin e'zozlash qadar xayrli amaldir. Huvaydo dunyoqarashi va ijodi qarama-qarshi qutblardan iborat shoirlardan biri sanaladi. Shoir asarlarida xudo va payg'ambarlarga atalgan hamd va na't, chahoryorlarga

e'tiqod, ro'za, namoz, toat-ibodat, haj, zakot kabi islom taomillariga, jannat va do'zax haqidagi diniy aqidalarga dildan ishonish kabi xurofiy fikrlar xiylagina o'rin olgan. Huvaydo deyarli hamma o'rinda o'zi haqida yozadi va o'zi misolida jamiyatning notinchligi, xalqning noilojligiga ishora qiladi. Huvaydo she'riyatining aksar qismi Ishqi ilohiy tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, tabiiyki, ularda Qur'oni Karim hikmatlari, diniy mifologik qahramonlar talaygina. Huvaydoning ayni ruhdagi asarlari keyinroq Haziniy, Nizomiy-Ho'qondiy, Muxlis, Shavqiy Namangoniy asarlariga ko'chgan, bu shoirlar Huvaydo g'azallariga muxammaslar bitganlar⁸. Uning g'azallari, asosan, oshiqona va orifona ruhdagi g'azallardir. Orifona g'azallarida shoir dunyoning qorong'u kechmishlarini fosh etish bilangina cheklanib qolmaydi. Balki undan qutulish, ozod bo'lish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatadi. Huvaydo g'azallarida tajnis, tazod, talmeh, qo'shaloq tashbihlar, ayniqsa, mubolag'a juda keng qo'llanilgan. Ma'shuqaning go'zalligi ideallashtirilgani singari oshiqning kechinmalari ham ko'tarinki ruhda tasvirlanadi:

Chu ishq bozorida, jono, chiroying raxtini yozsang,

Ko'rub Yusuf, Zulayho bo'lg'usi oldingda dalloling.

U aruzning deyarli barcha bahrlarida ijod etgan san'atkordir. Chunonchi:

Ramal (ramali musammani mahzuf):

G'uncha yanglig' yumuq ishqing bilan xomushsen,

Bu Huvaydodek sango bag'ri to'la qon qaydadur.

foilotun foilotun foilotun foilun

-v- - I - v - - I - v - - I - v -

Shoir she'rlaridagi dunyo, yor, may, ishq, oshiq kabi ko'p so'zlar keng ma'noda qo'llanilgan. Huvaydo mumtoz adabiyotning o'ndan ortiq janrida qalam tebratgan. Har bir janrda o'zining san'atkorligi, mahoratini namoyish eta olgan. Ularning yangi imkoniyatlarini kashf qilishga intilgan. Jumladan, mustazod janrida o'ziga xos san'at asari yarata olgan. Oddiy lirik mazmundagi fikrlarini voqeabandlik

asosida yoritgan. Bu asarning tasavvur manzarasini kengaytirgan. Huvaydo she'riyati mazmun, g'oya jihatidan qanchalik o'tkir mushohadaga boy meros bo'lsa, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan shunchalik o'ziga xos va yangichadir. Bunga devondan istagancha misol keltirish mumkin⁹.

II BOB:

“Rohati dil” dostoning g'oyaviy-badiiy tahlili.

Huvaydo mumtoz adabiyotimizdagi didaktik nasrchilik hamda epik dostonchilik an'analari davom ettirib “Rohati dil” hamda “Ibrohim Adham” asarlarini yaratdi.

Insoniyatni loqaydlik, jaholat, g'aflat tanazzulga yetaklaydi. Ezguliklardan yiroqlashtiradi. Ma'naviy qashshoqlikka mahkum etadi. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilishgan. Zamondoshlariga kamolotga, ma'naviy xazinalarga yo'l ko'rsatishgan. Jumladan, Huvaydo “Rohati dil” dostonini ham xuddi shu muammolarga bag'ishlagan. Uning masnaviy yo'lda yozilgan ushbu dostoni xalq orasida mashhur. U she'rlaridagi mazmun, g'oyani to'ldiradi, teranlashtiradi.

Shoir dostoning yozilish sababiga alohida kichkina bob bag'ishlaydi. Undan biz shoirning nasl-u nasabi, tug'ilgan joyi, ismi sharifi haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz. “Rohati dil” dostonini falsafiy-tasavvufiy ruhdagi asar bo'lishi bilan birga, unda shoir tarjimayi holiga dahldor o'rinlar ham bor. Kitobning yozilish sabablari ham doston muqaddimsidan anglashiladi:

Kitobimning otidur “Rohati dil”

Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil...

⁹ Jumaxo'ja N. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin. “Sharq yulduzi” jurnali, 1998, 4-son.

Demak, shoirning “Rohati dil” ni yozishdan maqsadi zamondoshlarini ma’naviy g’afolatdan uyg’otish. U asarni dastlab nasrda yozgan. Keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni nazm yo’li bilan qayta yaratgan. Shoirning butun umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkigo’y bo’lgani sababdan dostonni turkiy tilda yozilgan. Doston 30 bobdan va Ibrohim Adham hikoyatidan iborat. Asar an’anaviy tarzda Ollohga hamd va payg’ambarlarga na’t bilan boshlangan. Keyin chahoryorlar - Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alining ibratli faoiylatlari bayoni berilgan. Shariat qonun-qoidalar, talablari sharhlangan. Shundan so’ng bir qancha pandnoma hikoyatlar keltirilgan. “Rohati dil” asarining g’oyasini insonning ichki dunyosini boyitish, islom shiati ruknlariga ongli ravishda chuqur e’tiqod bilan amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Ulardagi obrazlarning bir guruhi iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik, ikkinchi guruhi esa g’azab, nafrat uyg’otuvchi obrazlardir. Shunday qilib, manzuma ko’p asrli adabiyotimizda qalamga olinib, tashviq-targ’ib etib kelingan shariat yo’riqlarini adabiy vositalar, obrazlar, she’r orqali xalqqa ta’sir o’tkazishga bag’ishlangan asardir¹⁰.

“Rohati dil” diniy-didaktik asar bo’lib, unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g’oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etiladi.

Mol-dunyoga hirs qo’yish, nafsga qul bo’lishning oqibatlari, bilim olishning ulug’ligi, ilm ahli izzatini o’rniga qo’yish; ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish; qo’ni-qo’shnilarning bir-biriga mehr oqibatli bo’lishi; er-u xotinning bir-biriga meht-muhabbatli, izzat-hurmatini joyiga qo’yishi; riyokorlik, xiyonat, ta’makirlik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi fazilat-u qusurlar asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qisqa hajmli hikoyalarda xalqona uslubda sodda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. Bu asar komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Inson o’z-o’zini tanishga, tabiatidagi nuqsonlarini yo’qotishga da’vat etiladi. Asar yaxlit syujet chizig’iga ega emas.

¹⁰ Huvaydo. Rohati dil. –T.:1994.

Ammo undagi fikr, g'oya, mazmunni birlashtirib turadigan yagona umumlashma - komil inson tarbiyasi masalasi bor. Shoir "Rohati dil" masnaviysi muqaddimasida:

Kitobim oti erur "Rohati dil",
Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil.
Ko'ngulning shahri sori azm qildim,
Kitobim nasr erdi nazm qildim,-

Shoir asarning nasriy nusxasini avval forsiyda yozib, so'ng turkiyxon kitobxonlarning ehtiyojini hisobga olib, turkiy nazmga aylantirgan ko'rinadi:

Bu Chimyon shahriing piru javoni,
Tamomiysi erurlar turkiy xoni.

"Rohati dil" dostoni yuqorida aytilganidek, 30 bobdan iborat bo'lib, hamd va na't bilan boshlangan. So'ngra "Hikoyati tobuti Jabroil alayhissalom" keladi. Hikoyatda aytilishicha, Jabroil alayhissalom Muhammad Mustafoga bir tobut keltirib, bu o'lim belgisi ekanini aytadi. Shunda Payg'ambar o'lim haqligiga iymon keltirish bilan birga, men bu dunyodagi barcha g'arib-qurobolar bilan birgaman. Ularni razolatga tashlab, o'zim arshi a'loga keta olmayman, men ularga shafolat etishim, bu imtihon-duyodin o'tishda haq yo'lga yo'llashim kerak mazmunida javob beradi:

Dedi:- Yo Jabroyil, siz menga sirdosh
Bu tobutni olib borgil, ayo yor,
Xudoyim va'da qildi manga bisyor...
G'arib ko'ngli sinuq bechoralarni...

Asar o'quvchilar qalbida eng nozik his-tuyg'ularni uyg'otadi, ularga hayotga muhabbat, iymonli, pok e'tiqod egasi bo'lishga chorlanadi. Kitobda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning aksariyati o'z manbaiga ega va ular tarixiy kitoblardan olingan. Shuningdek, asardagi turli qiziqarli va ibratomuz voqealar asar

qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog'lanib ketadi. Har bir inson o'z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko'ra ma'lum bahoga sazovor bo'ladi¹¹.

“Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo'nalishi islom dinining qisqacha bo'lsa-da, tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-ahloqiy hikoyatlar orqali o'quvchi ongi va uning tashqi va ichki dunyosini islom ma'naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. “Rohati dil” ko'p asrlik adabiyotimizda mavjud bo'lgan din tarixini adabiy vositalar orqali o'rganishga qaratilgan asardir. Afsuski, zamonaning zayli bilan bu doston o'z vaqtida nashr qilinmay kelingan. Vaholangki, bu kitobda insonning falsafiy dunyoqarashi, yaratuvchiga bo'lgan eng nozik dil tuyg'ulari, qolaversa, iymondagi sobitlik, toat-ibodat, halollik, rostgo'ylik, poklik kabi har bir musulmon farzandi bilishi ham farz, ham qarz bo'lgan eng yaxshi insoniy xislatlar kuylangan.

“Rohati dil” dostoni badiiy jihatdan teran va o'ziga xos uslubga ega bo'lgan adabiy manbadir. Bu asr mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan masnaviy janrining mahsulidir. U hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o'ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she'rning jarangdor va o'ynoqiligini rang-barang bo'yoqlar orqali ochib beradi. Dostondagi har bir misra o'quvchini to'lqinlantiradi, undagi chuqur mazmunni idrok etishga chorlaydi. Huvaydoning “Rohati dil” va o'zbek adabiyotidagi shu kabi diniy-axloqiy ruhda yozilgan asarlarni o'rganish va nashr qilinishiga hozirgi istiqlool davridagina keng imkoniyatlar ochib berildi.

“Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo'nalishi islom dinining qisqacha bo'lsa-da tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyalar orqali o'quvchi ongi va uning tashqi va ichki dunyosini islom ma'naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. “Rohati dil” ko'p asrlik adabiyotimizda mavjud bo'lgan din tarixini adabiy orqali

¹¹Huvaydo. Rohati dil. –T.:1994.

o'rganishga qaratilgan asardir. Afsuski, zamona zayli bilan bu doston o'z vaqtida nashr qilinmay kelingan. Vaholanki, bu kitobda insonning falsafiy dunyoqarashi, yaratuvchiga bo'lgan eng nozik dil tuyg'ularini, qolaversa, iymondagi sobitlik, toat-ibodat, halollik,, rostgo'ylik, poklik kabi har bir musulmon farzandi bilishi ham farz, ham qarz bo'lgan eng yaxshi insoniy xislatlar kuylangan.

Asar maxsus yaxlit bir syujet va kompozitsiya chiziqlarida tizilmagan bo'lsa-da, hikoyatlardagi o'zaro bog'lanish, aniqrog'i, har bir rivoyatning mazmunan uzviy bog'lanib birma-bir bayon etilishi shakl bilan mazmunning uyg'unligidan dalolat beradi. Asarda fikr-g'oyalarni umulashtirib, birlashtirib turuvchi reja bor. U KOMIL INSON masalasi. Asarning markazida, musulmon olamidagi Olloh yaratgan banda- inson yotadi. Asardagi barcha hikoyatlar, mav'izalar, fikrlar kamolotning mohiyati, shartlari, belgilarini yoritishga qaratilgan.

Musulmon dunyosida amalgam oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning "Bismillohir-rahmonir rahim" ilohiy jumlasini bilan boshlanishi muqaddas an'anadir. Sharq dostonchiligida o'rta asrlarda barcha sarlar xudoning madhi bilan boshlangan. Huvaydo ham o'z dostonini shu an'anaga amal qilgan holda Olloh hamdi bilan boshlaydi. Unda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar, va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o'z yuksak aqli, har bir insonga mehri bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog'lab, qovushtirib turishini katta zavq-shavq bilan tasvirlagan. Ollohning shunday mehribonchiligi uchun olamdagi hamma narsa har bir zarra unga minnatdorchilik bildirib, shukr etib, unga hamd-u sano o'qigan.

Sanov-u hamd xalloqi jahong'a,
Ki hukm ko'rsatib yaxshi yamong'a.
Tutibdur besutun ko'kni muallaq,
Borib shams-u qamar dunyoga ravnaq

Aytish kerakki, Allohni anglash va unga mehr qo'yish, Allohga xos yuksak sifatlarni ulug'lash diniy-tasavvufiy adabiyotga xos an'anaga aylangan. Ollohning, shubhasiz, birligi va tanholigini bayon etishda Huvaydo salaflariga ergashdi.

Adabiy an'anaga ko'ra Huvaydo Xudoning madhidan so'ng Islom dinining asoschisi Muhammad payg'ambar madhiga o'tadi. Shoir "Fi na'ti Rasululloh sallollohu alayhi va sallam" qismida payg'ambarimizning sifatlari bayon qilingan. Alloh Muhammad payg'ambarning vujudida barcha yaxshi xususiyatlarini zohir etgani, shu asosda "Xudoning do'sti" ("habibulloh") darajasiga ko'tarilgani, uning onadan bamisoli bir oftob bo'lib tug'ilgani hamda oxir zamon payg'ambari ekanliklari haqida hikoya qiladi.

Durdi beadaddur Mustafog'a,
Habibi Haq nigini anbiyog'a.
Sharofat bobida uldur yagona,
Erur payg'ambari oxir zamona...

Shundan so'ng Huvaydo payg'ambarning izdoshlaridan Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali, Imom Hasan va Husayn haqida, ularning Islom ishiga fidoyiligi, sadoqati haqida ham iliq fikrlarni bayon qiladi.

Ta'kidlash joizki, Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" dostoni Sharq adabiyotining mumtoz vakillari bo'lmish Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiyotlaridagi "Mahzan ul-asror", "Matla' ul-anvor", "Tuxfat ul-axror", "Hayrat ul-abror" dostonlaridan ilhomlanish natijasida maydonga kelib, uning tuzulishi (maqolat va hikoyatlar, masallar) ham, ijtimoiy va axloqiy muammolarning o'rta qo'yilishida ham umumiylik borligi ko'zga tashlanadi. Umumiylik tomoni shundaki, tilga olingan dostonlar yoki shoirlarning ijodidagi asosiy mushtarakilik axloqiy-ta'kimiylarini ifodalash, komil insonni tarbiyalashga bosh vazifa sifatida qarashdir. Huvaydoning "Rohati dil" dostonida ilmi kalom va ilmi fiqhda zikr etilgan masalarni bayon qilishda So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asariga yaqin turishini kuzatishimiz mumkin. Har ikkala asarda ham insonlarning e'tiqodi, iymoni, diyonatini mustahkamlashni,

ularning o'zligini va Xoliqni tanish bilan bog'liq masalalar haqida fikr yuritilganligi ko'zga tashlanadi¹².

Yuqorida ta'kidlangan asarlarni qiyoslashda shuni kuzatishimiz mumkinki, Huvaydoning "Rohati dil" dostoni axloqiy-ta'limiy fikrlarni bayon etuvchi yetuk asar hisoblanadi va g'oyani ifoda qilish jihatdan farq qiladi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyotining ilk davrlarida yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sayfi Saroiyning "Guliston bit turkiy", Nizomiy Ganjaviy "Mahzan ul-asror", Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" kabi dostonlarida axloqiy-ta'limiy fikrlar diniy hamda dunyoviy manzaralar, kechinmalar orqali berilgan. Dostonlarning hamd va na'tlarida islom ta'limotiga oid qarashlar o'z ifodasini topgan bo'lib, so'ngi fasl va boblardagi tasvirlar hamd-na'tlar bilan uzviy bog'lanadi. Agar islom ta'limotida va uni targ'ib qiluvchi badiiyat namunalarida insonni tarbiyalash, unga mehr-muhabbat ko'rsatish, kishilarning muruvvatli, saxovatli bo'lishi bosh masala qilib qo'yilsa, "Rohati dil" ham yuqoridagi asarlar oldida turgan vazifalarni bajaradi. Faqat bu o'rinda masala ko'proq islom ta'limotini shakllantirishga xizmat qiluvchi diniy g'oyalarga qaratilganligi ko'zga tashlanadi¹³.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni bilan "Rohati dil" dostonini qiyoslaganda ma'lum bir yaqinlik borligi ko'zga tashlanadi. Har ikkala asar ham she'riy yo'lda masnaviyda yozilgan, axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy, diniy fikrlarni badiiy tarzda ifodalaydi. Ularning yaratilishida an'anaviylik xususiyatlari mavjud. "Hayrat ul-abror" xamsachilik, "Rohati dil" diniy g'oyalar targ'ib qilish an'analari asosida yaratilgan.

Ma'naviy-axloqiy, din-tasavufiy tarbiya, inson kamoloti masalalari Xo'janazar Huvaydo ijodida asosiy o'rin egallaydi. Shoirningbu jihatdan "Rohati dil" dostoni ahamiyatlidir. Adabiyotshunosligimizda hali yetarli o'rganilmagan "Rohati dil" Huvaydoning hissiy va ruhiy kechinmalarni o'zida mujassamlashtirgan asar bo'lib, unda shoirning tarjimai holiga, ijtimoiy-siyosiy,

¹² Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. -T.:1976.

¹³ Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -T.:2006.

diniy-tasavvufiy qarashlari jamuljam. Asar madaniy merosimizda muhim o'rin tutgan diniy-axloqiy va didaktik asar hisoblanadi¹⁴.

“Rohati dil” diniy-didaktik asar. Unda islom va tasavvuf ta’limotining umuminsoniy g’oyalari ibratli hikoyalar vositasida tahlil etiladi. Mol-dunyoga hirs qo’yish, nafsga qul bo’lishning oqibatlari, bilim olishning ulug’ligi, ilm ahli izzatini o’rniga qo’yish; ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish; qo’ni-qo’shnilarning bir-biriga mehr-oqibatli bo’lishi; er-u xotinning mehr-muhabbatli bo’lib, izzat-hurmatini joyiga qo’yishi; riyokorlik, xiyonat, tamagirlik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi illatlarni fosh etish masalalari asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qisqa hajmli hikoyalarda xalqona uslubda soda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. Bu asar komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Inson o’z-o’zini tanishga, tabiatidagi nuqsonlarni yo’qotishga da’vat qilinadi. Asar yaxlit syujet chizig’iga ega emas. Ammo undagi fikr, g’oya, mazmunni birlashtirib turadigan yagona umumlashma-komil inson tarbiyasi masalasi bor.

Shoir ilgari surgan, aytmoqchi bo’lgan fikrlarning eng yuqori cho’qqisi Ibrohim adham hikoyatida mujassamlashgan. Undagi mazmun sayyor syujetga asoslangan. “ibrohim adham hikoyati”da-behad mol-dunyoga ega bo’lgan, boylik, toj-u taxt, rohat-farog’atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo’lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi.

O’zbek mumtoz adabiyotida bu mavzuni yorituvchi ko’p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu an’anaviy hikoyatni o’ziga xos uslubda yangi tuyg’u va kechinmalar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqali ifodalashga erishgan.

Xo’janazar Huvaydo o’zining shar’iy axloqiy mulohazalarini ibratli hayotiy lavhalar bilan dalillash maqsadida musulmon dunyosida dovuqli mutasavvuf Ibrohin Adham haqidagi she’riy hikoyatini keltiradi. Mazkur lavhalarda yana bir taniqli ma’naviy-ruhiy arbob Robiai Adviya ham ishtirok etadi.

¹⁴ Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. –T.:1986

Ibrohim Adham o'n to'rt yil sahro kezib Makkai mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka'batulloh o'z o'rnida yo'q ekan. O'sha muqaddas makonda hozir bo'lganlar muborak sajdagohning Robiai Adviya istiqboliga chiqqanligini ma'lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig'onini falakka ko'taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robianing uchrashuvi hamda muloqotlari voqe' bo'ladi. Ibrohim Adhamning fig'onli savollarini tinglagan bokira-yu zakovatli ayol Robia quyidagicha javob qaytaradi:

...Dedi ey Robia baxting na bo'ldi?
Saning olding'a keldi Ka'ba bexosdan,
Nega boqmassan anga qarab rost.
Dediki Robia baxting saningdiu,
Bu so'zni manga andog' aytg'oningdur.
Mashaqqatsiz yemishda yo'q lazzat.
Topilsa bemashaqqat har nimarsa,
Aning qadrin bilmasdur har kimsa.
So'radi boz Sulton Robiadin,
Manga aytg'il dedi bu voqeadin.
Ki san har bir qadamda ikki ra'qat,
O'qur eding namoz, ey neki himmat.
Manam har bir qadamda ikki ra'qat,
Namoz o'quv qilur edim ibodat...

Hikoyat davomida Robianing quduq bo'yida suvsagan itning hojatini chiqargani bayon qilinadi...

Huvaydo "Rohati dil" dostonida insonni ezgu amallar sohibi bo'lib, noqisliklardan mosuvo bo'lishga da'vat etadi. Buning uchun payg'ambarimiz hadislaridagi axloqiy-ma'rifiy mavzularga bot-bot murojaat qilganligini

ko'rishimiz mumkin. Payg'ambarimiz hadislarida munofiq odamlar shunday deyiladi: "Munofiqning alomati uchta¹⁵":

1. Gapirsa yolg'on gapiradi.
2. Va'dasiga bevafo bo'ladi.
3. Omonatga xiyonat qiladi.

Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" asaridagi axloqiy-ta'limiy masalalardan biri til va so'z muammosi bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Unda shoir tilning, ya'ni so'zlashning fazilatlari va qusurlari haqida fikr yuritadi. Til bilan inson ro'shnolikka chiqadi. Ilohiy ne'mat bo'lgan so'zni har bir inson Qadrlamog'I kerak.:

Amalning yaxshisi zinhor, ey yor,
Dedi oz so'zlamak Sultoni abror.
Tan ayturki kam so'zlagil, ey til.
Bo'lur yuz ming gunohlar sanda hosil...
Kishi ko'p so'zlasa tortar azani,
Eshitur xalq aro ko'p nosazoni.

Huvaydo "Rohati dil" dostonida insonni komillikka yetaklovchi xususiyatlar, uning ruhini nopoklikdan xalos etish kabi muhim masalalar xususida o'zining umrboqiy fikrlarini bayon etadi. Shubhasiz, shoir bunda Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limotiga tayanadi¹⁶.

"Rohati dil" kitobining ba'zi qismlari islom dinining asosiy qoidalarini tushuntiruv va izohlovga bag'ishlangan. Dunyo, insonning kelib chiqishi, turmush usullari, oxirat, mahshar kuni va uning tasviri do'zax va jannat to'g'risidagi tasavvurlari bu kitobda o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, voqelikni badiiy aks ettirishda, tasviriy vositalarning o'rni beqiyos kattadir. Ular orasida badiiy san'atlar asarda muallifning g'oyaviy niyatini rangin

¹⁵ Jumaxo'ja N., Qosimov B. O'zbek adabiyoti.-T.:2001.

¹⁶ Jumaxo'ja N. Huvaydo me'rosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati.-T.:1995.

yuzaga chiqarish, muddaosini kitobxonga to'liq yetkazish, uning qalbida zavq uyg'oyishda beminnat xizmat qiladi. Shu ma'noda "Rohati dil" dostoni badiiy jihatdan teran va o'ziga xos uslubga ega bo'lgan adabiy manbadir. Bu asar mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan masnaviy janrining mahsulidir. U hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonining qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o'ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she'rning jarangdor va o'ynoqiligini rang-baraang bo'yoqlar orqali ochib beradi. Dostondagi har bir misra o'quvchini to'lqinlantiradi, undagi chuqur mazmunni idrok etishga chorlaydi. Chuqur g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan "Rohati dil" asari badiiy balog'atning ham nodir namunasi. Asarning o'ziga xosligi ko'proq badiiyatida, yangicha topilmalarda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.

Xulosa.

Huvaydo o'zining butun bilimi, iste'dodini diniy-islomiy qadriyatlarni mustahkamlashga, komil insonni har tomonlama shakllantirishga qaratilgan o'ziga xos konsepsiyasini amalga oshirishga, imon-e'tiqod, halollik, mehr-shavqat, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib etishga bag'ishladi. U bu yo'lda fisq-u fujurlar, nadomatlar, kaltafahm mutaassiblar malomatlaridan cho'chimadi. Uning asarlari haddidan oshgan takabbur eshonlar dasturi sifatida talqin qilindi va ulardan bahramand bo'lish sog'lom jamiyat hayotiga putur yetkazadi, degan xulosaga kelinadi. Huvaydo oddiy xalq hayotiga yaqin turdi, zamondoshlarining ma'naviy-axloqiy kechinmalarini bevosita kuztib bordi, jamiyat duch kelgan ijtimoiy-axloqiy muammolarni oqilona hal etish, ma'naviy inqirozning oldini olish ustida falsafiy mushohada yuritdi. U tasavvufning boshqa vakillaridan farqli ravishda zamona nosozliklari charxning

kajraftorligi va zolimlar zulmidan shikoyat qilmadi, balki har qanday zulm, razolat, adolatsizlikni dunyoga keltiradigan bosh omil ma'naviy qashshoqlik, imon-e'tiqodning sustligi, nodonlik va johillikda, deb bildi.

Mamlakatimizda yangicha falsafiy tafakkur shakllanayotgan, diniy qadriyatlarimizning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni va roli yangicha idrok etilayotgan hozirgi sharoitda hazrat Huvaydoning o'lmas badiiy-falsafiy asarlari bizni ma'naviy kamolotning sirli va jozibali olamiga olib kiradi, ko'nglimiz yorishadi, hayotning mazmuni va qadrini chuqurroq his etishga, o'zimizda komillik sifatlarini tarbiyalashda yordam beradi.

Huvaydo ijodini o'rganish islom ta'limotining inson ongi va ruhiyatini shakllantirishdagi xizmatini anglash bilan uzviy bog'liq. Chunki uning "Rohati dil" dostonida islom dinining xalqchilligi, odamlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ma'naviy-ma'rifiy kuchi yorqin ifodasini topgan. Uning ijod manbalari ikki ildizdan oziqlanadi. Birinchisi, islom ta'limoti va uning muqaddas kitobi hisoblangan Qur'ondagi ezgulik tavsilotlari, hadislar, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, shuningdek, boshqa buyuk siymolarning ibratli hayot yo'li. Ikkinchisi, adabiy ta'sir bo'lib, unda islom ta'limoti va maqsad va mohiyatini targ'ib qilgan badiiy asarlar muhim qimmatga ega. Bu o'rinda Alisher Navoiy, So'fi Olloyor va boshqa ijodkorlarning ta'siri sezilarlidir.

"Rohati dil" Huvaydo ijodidagina emas, umuman, o'zbek adabiyoti tarixida ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan asardir.

Asar islomiy g'oyalarni targ'ib qilish an'anasiga ko'ra "Hayrat ul-abror" ning hamd-u na'tida ta'riflangan fikrlarga yaqin turadi. Lekin har ikki shoirning diniy-falsafiy qarshlari o'ziga xos uslubda bayon etilgan. Agar Alisher Navoiy diniy qoida va tushunchalarni badiiy tasvir, falsafiy kechinmalar bilan idrok etsa, shu asosda odamlarda islom diniga e'tiqod ruhini kuchaytirsas, Huvaydo diniy qoida va tushunchalarni shariat nuqtai nazaridan targ'ib qiladi, ularni mulohaza yuritish asosida idrok etish emas, balki ko'proq to'g'ridan-to'g'ri amal qilishga da'vat etadi.

Huvaydo dostonida payg'ambarlar va shayx avliyo9lar obrazini yaratganda ularning hayotida mujassamlashgan poklik, ma'rifat, iymon, e'tiqod, to'g'rilik, adolatlilik va shu kabi sifatlarni ulug'lashga alohida e'tibor qaratadi. Uning lirik she'rlarida ham, "Rohati dil" dostonida ham tasviriy vositalardan foydalanish san'at darajasiga aylanishi uning mohir so'z san'atkori bo'lganligini ko'rsatadi. Xulosada yana shuni ta'kidlash joizki, jamiyatni ma'naviy yuksaklikka ko'tarish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish o'zbek xalqining azaliy orzusi bo'lgan. Ayniqsa, bugungi milliy mustaqillik mafkurasi yangi avlod ma'naviy kamolotini juda-juda taqazo etadi. Ma'naviy kamolot tarbiyasining eng muhim omillaridan milliy, madaniy meros namunalari mutolaasidir. Ulug' o'zbek shoiri Xo'janazar Huvaydo ijodi merosida ma'naviy barkamol shaxslarni kamol toptirishga oid o'ta dolzarb axloq-odob muammolari nozik shoirona kechinma, mushohadalar vositasi ila badiiy ifodalangan. Sharqona axloq, odamiylik nizomlari Huvaydo nazmida tasavvuf ta'limotining falsafiy g'oyalari hamda badiiy timsollari bilan uyg'un yo'g'rilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Abdullayev V., Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 3-jild.-T.:1978.
- 2.Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-T.:2006.
- 3.Huvaydo. Tanlangan asarlar.-T.:1960.

- 4.Huvaydo. Rohati dil. –T.:1994.
- 5.Huvaydo. Devon.-T.:2005.
- 6.Ibrohim Ahmad.-Samarqand.:1995.
- 7.Jalolov T. Samarbonu.-T.:1969.
- 8.Jumaxo'ja N. Huvaydo me'rosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati.-T.:1995.
- 9.Jumaxo'ja N. Huvaydo tasavvufiy she'rlarida falsafiy-badiiy talqin. "Sharq yulduzi" jurnali, 1998, 4-son.
- 10.21
- 11.Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. –T.:1976.
- 12.Qayumov A. Asarlar. XVI asr o'zbek adabiyotiga oid chizgilar. T.:2010.
- 13.Ro'zmatzoda Q. Xojanazar Huvaydo va tasavvuf. "Sirli Olam" jurnali, 2001, 3-son.
- 14.Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. –T.:1986
- 15.So'fi Olloyor. Sabotul ojizin.-T.:1991.
- 16.Zohidov V. "Shomi g'arib", shakkok va isyonkor shoir. Hayotbaxsh badiiyat taronalari.-T.:1975.

